

HIMOYALANGAN GRUNTA BODRING DURAGAYLARINING HOSILDORLIGIGA TURLI EKISH MUDDATLARINING TA'SIRI

Bekmuradova Xurshida Karimovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachili va biotexnologiyalar
universiteti "O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish" kafedrasida

xurshidabekmuradova63@gmail.com

Ergashev Ibragim Tashkentovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachili va biotexnologiyalar
universiteti "O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish" kafedrasida

ibragimergashev64@gmail.ru

ANNOTATSIYA

Himoyalangan grunt sabzavotchiligi qishloq xo'jaligining eng faol va shu bilan birga eng murakkab, ko'p xarajat va mehnat talab qiluvchi tarmoqlaridan biri bo'lib, yil davomida faoliyat yuritadi. Shu sababdan aholini yilning barcha muddatlarida yangi sabzavotlar bilan ta'minlashdek muhim vazifani bajaradi.

Yilning turli vaqtlarida yangi sabzavotlarni yetkazib berish himoyalangan gruntdan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizda himoyalangan gruntda yetishtiriladigan sabzavot ekinlari qatorida bodring alohida o'rin egallaydi.

Himoyalangan tuproqdagi bodring hosildorligi ko'plab sharoitlarga va birinchi navbatda tanlangan yetishtirish texnologiyasiga bog'liq. Bunda navlarning, duragaylarning biologik xususiyatlari va yetishtirish muddati hisobga olinadi.

Tadqiqotlar natijasida shular ma'lum bo'ldiki, o'rganilgan duragaylarning ba'zilar yetishtirishning har ikki muddatida ham yaxshi o'sadi, rivojlanadi va yuqori hosil beradi.

Olingan natijalar, originatorlarning duragayga bergan ta'rifiga qaramay, duragaylarning biologik xususiyatlari o'sish sharoitlariga qarab o'zgarishi mumkin degan xulosaga kelish uchun asos bo'ladi. Chunki o'rganilgan duragaylar mualliflarining fikriga ko'ra, Kuraj F₁ yozgi-kuzgi va bahorgi-yozgi yetishtirish muddati uchun tavsiya etiladi. Blyuz F1 duragayi esa, yozgi - kuzgi yetishtirish muddati uchun mos deb hisoblanadi.

Kalit so'zlar. *Sabzavotlar, himoyalangan grunt, hosildorlik, nav, duragay, yetishtirish muddati.*

INFLUENCE OF DIFFERENT SOWING TIMES ON THE YIELD OF CUCUMBER HYBRIDS IN CLOSED SOIL

ANNOTATION

Indoor vegetable growing is one of the most active and at the same time the most complex, costly and labor-intensive branches of agriculture, operating all year round. For this reason, it performs the important task of providing the population with fresh vegetables at any time of the year. Delivery of fresh vegetables at different times of the year is carried out using a secure platform. Cucumber occupies a special place among vegetable crops grown in protected soil in our republic. The yield of cucumbers in protected ground depends on many conditions and, above all, on the chosen growing technology. In this case, the biological characteristics of varieties, hybrids and the growing period are taken into account. As a result of the research, it was found that some of the studied hybrids grow well, develop and produce high yields in both growing periods. The results obtained are the basis for the conclusion that, despite the definition of a hybrid given by the originator, the biological characteristics of hybrids may vary depending on growing conditions. Because, according to the authors of the studied hybrids, Kurai F1 is recommended for the summer-autumn and spring-summer growing periods. Hybrid Blues F1 is considered suitable for the summer-autumn growing season.

Keywords. *Vegetables, protected soil, yield, variety, hybrid, duration of cultivation.*

KIRISH

Sabzavotlar qimmatli oziq-ovqat mahsuloti bo'lib hisoblanadi. Sabzavotlar tarkibida mineral tuzlar, vitaminlar, oqsillar, yog'lar, uglevodlar, shuningdek, organik kislotalar va faqat inson tanasi uchun zarur bo'lgan boshqa moddalar mavjud. Bundan tashqari, sabzavotlarda bakteritsidlik xususiyati mavjud bo'lib - patogen bakteriyalarni yo'q qilish qobiliyatiga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, respublikamiz aholisining sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabi yil davomida uzluksiz ochiq va himoyalangan gruntda yetishtirish hisobiga qondiriladi [6].

Bodring - ertapishar, yuqori hosildor, foydali sabzavot ekinlaridan bo'lganligi sababli himoyalangan gruntning eng keng tarqalgan ekinlaridan bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, bodring mevalari yuqori ta'm va parhez fazilatlariga ega, inson tanasidan tuzlarni chiqarishga yordam beradi va oqsillarga boy, shu bilan birga oziq-ovqat hazm bo'lishini yaxshilaydi[2].

Bodringning barra ta'mi va hidi erkin organik kislotalar, efir moylari mavjudligi bilan bog'liq va yaxshi yod manbai bo'lib hisoblanadi. Bodring tarkibida kaliy, fosfor, oltingugurt, magniy, natriy, temir, kremniy, mikroelementlar, C vitaminlari, karotin, tiamin (vitamin B1), riboflavin (B2), foliy kislotasi (B9) mavjud[1].

Himoyalangan tuproqdagi bodring hosildorligi ko'plab sharoitlarga va birinchi navbatda tanlangan yetishtirish texnologiyasiga bog'liq. Bunda navlarning, duragaylarning biologik xususiyatlari va yetishtirish muddati hisobga olinadi [5].

Ma'lumki, mahsulotning hosildorligi va sifati ko'p jihatdan nav xususiyatlariga bog'liq, shuning uchun yopiq gruntda sabzavotlarning xar bir nav va duragaylarini

maqbul ekish muddatida yetishtirish amalga oshirilgan ishlarning muvaffaqiyatini belgilaydi [4].

Tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi respublikamizning Samarqand viloyati sharoitida yopiq gruntda yetishtirishga mos bodring geterozis duragaylarini o'sishi, rivojlanishi, meva hosil qilish va hosildorlik xususiyatlarini hamda boshqa qimmatli xo'jalik belgi va xususiyatlarini o'rganish asosida kuzgi-qishgi va qishgi-bahorgi ekish muddatlari uchun duragaylarni tanlashdan iborat bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotlar obyekti bo'lib Rossiyaning urug'chilik firmalaridan keltirilgan bodring xar xil geterozis duragaylari hisoblanadi. Tadqiqotlar kuzgi-qishgi va qishgi-bahorgi ekish muddatlarida amalga oshirildi.

Mevaning biokimyoviy tahlili va sifati «Методических указаний по определению химических веществ для оценки качества урожая овощных и плодовых культур» (М.1979) uslubiy ko'rsatmasi asosida amalga oshirildi. Fenologik kuzatishlar, biometrik o'lchovlar va hosildorlikni aniqlash «Методические рекомендации по проведению опытов с овощными культурами в сооружениях защищенного грунта» uslubiy ko'rsatmasiga asosan amalga oshirildi.

NATIJALAR

Tadqiqotlarimizda o'rganilgan duragaylar turli ekish muddatlari uchun yaratilgan duragaylar bo'lib hisoblanadi. Biroq tadqiqotlarimiz natijalaridan, o'rganilgan duragaylarning ba'zilari xar ikki yetishtirish muddatida ham yaxshi o'sib rivojlanganligi, shu bilan birga yuqori hosil berganligi ma'lum bo'ldi. Bu duragaylar qatoriga Blyuz F₁, Kuraj F₁ duragaylari kiradi, ularning o'rtacha hosildorligi 11,10 - 12,60 kg / m² ni tashkil etdi. Bundan tashqari, bu duragaylar barqaror meva berishi, asosiy poyada bir vaqtning o'zida meva hosil bo'lishi, meva sifatining yuqoriligi, tashishga chidamliligi, tovarbopligi bilan ajralib turdi.

Turli ekish muddatlarida yetishtirganda duragaylarning hosildorligi
(kg/m²).

№	Duragaylar	2022y		2023y		O‘rtacha hosildorlik
		Kuzgi- qishgi	Qishgi- bahorgi	Kuzgi- qishgi	Qishgi- bahorgi	
1	Alanga (st)	10,20	10,43	10,32	10,74	10,40
2	Kuraj F ₁	12,88	12,14	12,96	12,23	12,60
3	Blyuz F ₁	11,63	10,64	11,57	10,60	11,10
4	Asker F ₁	8,73	7,95	8,98	8,14	8,05
5	Avrora F ₁	9,00	9,97	8,75	10,00	9,43
6	Джuliya F ₁	10,08	9,21	9,99	9,17	9,62
7	MediyaF ₁	9,10	7,70	8,96	7,67	8,36
8	Effekt F ₁	7,81	8,92	8,15	9,06	8,48

NSR₀₅ kg/m² - 0,2 kg

Olingan natijalar, originatorlarning duragayga bergan tavsifiga qaramay, duragaylarning biologik xususiyatlari o‘shish sharoitlariga qarab o‘zgarishi mumkin degan xulosaga kelish uchun asos bo‘ladi, chunki yuqorida keltirilgan duragaylar mualliflarining fikriga ko‘ra, Kuraj F₁ va Blyuz F₁ duragaylari yozgi-kuzgi va bahorgi-yozgi mavsumda yetishtirish uchun mos deb hisoblanadi. Kuraj F₁ duragayida hosildorlik tajiba o‘tkazilgan kuzgi – qishgi muddatda 12,88 – 12,96 kg/m² ni, qishgi – bahorgi muddatda esa, 12,14 – 12,23 kg/m² ni tashkil qildi. Blyuz F₁ duragayi hosildorligi esa nisbatan 11,63 – 11,57 kg/m² va 10,64 – 10,60 kg/m² ni tashkil qildi.

Bizning tadqiqotlarimizda boshqa o‘rganilgan duragaylarning hosildorligi yetishtirish muddati va duragaylarning biologik xususiyatlariga qarab 8,05 – 10,40 kg/m² atrofida bo‘ldi. Bundan tashqari, ularda nisbatan past hosildorlikning sababi, changlanish xususiyati bilan bog‘liq bo‘lihi mumkin, masalan, Media F₁ duragayining o‘simliklari asalari yordamida changlanishi bilan ajralib turadi.

Olingan natijalarga asoslangan holda, Aurora F₁ va Effekt F₁ duragaylari qishgi-bahorgi yetishtirish muddatlarida yuqori hosil va sifatli mahsulot olishni ta'minlaydi. Shunday qilib, Aurora F₁ duragaylaridan kuzgi-qishgi ekish muddatida 9,0 - 8,75 kg / m², qishgi-bahorgi ekish muddatida esa 9,97 - 10,0 kg / m² hosil olindi. Effekt F₁ duragayi uchun bu ko'rsatkichlar mos ravishda 7,81 - 8,15 va 8,92 - 9,06 kg / m² ni tashkil qildi.

XULOSALAR. Olingan natijalarga asosan Aurora F₁ va Effekt F₁ duragaylari kuzgi-qishgi ekish muddatida, Kuraj F₁ va Blyuz F₁ duragaylari esa yozgi-kuzgi va bahorgi-yozgi ekish muddatlarida yuqori hosil va sifatli mahsulot olishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. С.Ф.Ващенко. Овощеводство защищенного грунта. М. 1984.
2. В.Г.Король. О сроках выращивания огурца в зимних теплицах. Ж.Гавриш. № 1.2007 стр13.
3. С.Ф.Гавриш и др. Гибрид огурца F₁ Кураж: Технология выращивания партенокарпического гибрида. НП «НИИОЗГ» 2005. 152с
4. Бекмурадова, Х. К., & Исмоилов, А. И. Самарканд, Узбекистан Samarkand Institute of veterinary medicine, Samarkand, Uzbekistan The scientific research institute of vegetable groups and potato studies in Samarkand scientific-experimental station, Samarkand, Uzbekistan. *ББК 65.2 С56*, 58.
5. Бекмурадова, Х. К., Исмоилов, А. И., & Ахмадалиев, Б. Ж. (2019). ОЦЕНКА ИСХОДНОГО МАТЕРИАЛА ДЛЯ СОЗДАНИЕ НОВЫХ УСТОЙЧИВЫХ К ВИРУСНОЙ МОЗАИКЕ СОРТОВ ТОМАТА. *Актуальные проблемы современной науки*, (3), 170-173.
6. Ergashev I.T., Begimqulov.I.B. Razzokov J. Oblakulov F. Scaintific hypotesis "Variety and population in agrobiocenosis of potatoes" International Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN:1475-7192. Page No. 4638-4641 <https://www.psychosocial.com/article/PR260452/14754/>

7. Халилов, Н., Косимова, Ш., Отаярова, Г., Ўктамов, Х., & Абдукодиров, Б. (2022). СИЛОС МАССА УЧУН МАККАЖЎХОРИ ДУРАГАЙЛАРИНИ ЕТИШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 1207-1209.

8. Усманов, Н. А., Равшанова, Н. А., & Отаярова, Г. У. (2021). ЗАВИСИМОСТЬ ДЛИНЫ ВЕГЕТАЦИОННОГО ПЕРИОДА СОРТОВ ФАСОЛИ ОБЫКНОВЕННОЙ ОТ СРОКОВ И СПОСОБОВ ПОСЕВА. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 718-724.

9. ovorot.ru/ogurez/zas_grunt.h

10. green_houses.ru/cucumber_in_gree.